

TURKIY SARKARDALAR TURKUMIDAN JALOLIDDIN MANGUBERDI

Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi Pedagogika va
psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi*

Mamadaliyev Muhammad ali Xamidullo o'g'li

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi Pedagogika -
psixologiya yo'nalishi 22-13 guruh talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqola Turkiy qavmga mansub bo'lgan o'z davrining yetuk namoyondasi Jaloliddin Manguberdi haqida va Turkiylar haqida bilib olasiz. Darvlar oralig'ida turkiy xalqlar orasidan juda ham ko'plar olimlar yengilmas sarkardalar yetishib chiqqan va bu mavzuda Turkiy sarkardalar turkumi orqali malumotlar beramiz.*

Kalit so'zlar: *Turkiylar, sarkarda, Davlat, qavm, qabilalar, sulolalar, mintaq, urush.*

Аннотация: *В этой статье вы узнаете о Джалалуддине Мангуберди, зрелом представителе своего времени, принадлежавшем к тюркскому племени, и о тюрках. Среди дарвазов из тюркских народов гораздо больше ученых, чем непобедимых полководцев, и мы даем информацию по этой теме через серию тюркских полководцев.*

Ключевые слова: *тюрки, полководец, Государство, племя, племена, династии, регион, война.*

Jahondagi turkiy tillardada so'zlashuvchi xalqlarga nisbatan ishlatiladigan nom.

Turk so'zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarni anglatadi, degan fikrlar mavjud. Qadimgi turklar genetik va fenotipik jihatdan Sharqiy osiyoliklar va sibirliklar bilan chambarchas bog'liq edi. Turkiy xalqlar mo'g'ullar va koreyslar bilan alohida yaqin munosabatda bo'lishi mumkin.

Genetik, arxeologik va lingvistik dalillar ilk turkiy xalqlarni shimoli-Sharqiy Osiyo Tarik-agriculturalists bilan bog'laydi, keyinchalik ko'chmanchi turmush tarzini qabul qilgan va Sharqiy Mo'g'ulistondan g'arbga tomon kengaygan.

Bir necha ming yilliklar davomida turkiy qabilalar ko'p marta birlashgan va parchalanganligi tufayli ularning qabilaviy tarkibi o'zgarib turgan.

Mil. av II-asrdan — mil. III-asrgacha bo'lgan davrda turklar Hun xoqonligi tarkibida bo'lgani sababli Xitoy manbalarida shyunnu, hunnu deb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyingi 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni tiyekle (zamonaviy tilda tele) deb atashgan.

VI-asrda turklarda bo'lgan Ashina avlodi kuchayib, Turk xoqonligi barpo etgan. Xitoy manbalariga ko'ra, IX-asrda tilga olinadigan turk qabilalari 58 ta nom bilan ajratilgan.

Shulardan 22 tasi uyg'ur (ittifoqchilar) deb nomlangan. Uyg'ur xoqonligi tugatilganidan so'ng bularning katta bir qismi Turkiston hududida joylashgan (qarang

Turk). Turkiya olimlari asarlarida turk qabilasi ko'kturk deb ham ataladi. Tadqiqotlarga ko'ra, ko'kturk so'zi tangriga, ya'ni osmonga ishongan turklar, balandlik turklari, ko'k bo'ri totemi bo'lgan turklar kabi ma'nolarni anglatgan. Markaziy Osiyoda turk toponim, etnonim, gidronim sifatida ko'plab uchraydi.

Ashina (Turk xoqonligi, G'arbiy turk xoqonligi, Sharqiy Turk xoqonligi, Xazarlar, Nushibi) Ashide (Empress clan of Ikkinchi Turkiy Xoqonlik) Yaglakar (Uyg'ur xoqonligi, Ganzhou Uyghur Kingdom) Adiz (Uyg'ur hoqonligi) Dulo (Volga-Kama Bulg'oriyasi) Bulanid (Xazar xoqonligi) Osman (Usmonlilar imperiyasi) Bahri (Mamluklar davlati) Sarkar (Shirvon Xonligi) Javanshir (Qorabog' xonligi Terteridlar (Ikkinchi Bolgariya Imperiyasi) Saljuqiylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Usmonlilar va turli davlatlar kiradi

Jaloliddin Manguberdi (1198—1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-yildan), Muhammad Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, kelib chiqishi Turkmanlarning Begdili urug'iga borib taqaladi. Jaloliddin 33 yil umr ko'rgan bo'lib, shundan 11 yil umri turli janglar ichida o'tgan. To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad.

Onasi Oychechak bo'lgan. Dastlab u taxt uchun asosiy da'vogar hisoblanmagan, chunki onasi Oychechak Alovuddin Xorazmshoh haramidagi kanizaklardan biri edi. Taxt vorisi Qutbiddin Ozloqshoh bo'lgan va uning taxt borasidagi da'volarini buvisi Terkan Xotun qo'llab quvvatlagan. Ammo, otasi o'limi oldidan Jaloliddinni taxt vorisi qilib tayinlaydi, Jaloliddin Anushteginiylar Turkman Sulolasidan bo'lgan.

Ammo bu davrga kelganda Xorazmshohlar davlati deyarli tugab bo'lgandi chunki Chingizxon va mo'g'ul qoshinlari butun o'rta osiyoni ishg'ol qilayotgandi

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrda bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashura orolidan panoh topgan. Og'ir bemor bo'lgan Muhammad o'g'illarini yoniga chorlab, so'nggi damda Jaloliddin Manguberдини o'z o'rniga xorazmshoh etib tayinlagan.

Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo'ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo'l olgan. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo'g'ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da'vat etadi. Bir oydan so'ng G'azna tomon yo'l oladi. Yo'lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shilgan.

Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgan. Jaloliddin G'aznaga 1221-yilda kirib kelgan. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam Malik, afg'onlar sardori Muzaffar malik, qarluqlar yetakchisi Hasan Qarluq kelib qo'shilgan. Ularning har

biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberding o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'prikn buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberding mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Parvon jangi

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yonni 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azni yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi, biroq jangdan so'ng Jaloliddin Manguberding lashkarboshilari o'lja ustida o'zaro janjallashib qolib, oqibatda Sayfuddin Ig'roq, A'zam malik va Muzaffar maliklar Jaloliddin Manguberдини tark etganlar.

Bu tark etishni sababi turlicha bo'lgan. Masalan, Turkmanlar yo'l boshchisi bo'lgan Sayfuddin Ag'roq bilan bir arabiy ot ustida talashib qolishadi. (O'ljalor orasida eng noyob ulush ot hisoblagan. Otlar zotiga va chiroyiga qarab bir necha ming tilloga baholangan.) Tortishuv paytida qizishib ketgan Amin Malik Sayfuddin Ig'roqni boshiga qamchi bilan uradi. Jaloliddin esa Amin Malikni bu ishi uchun jazolamaydi (Amin Malik Jaloliddinning qaynotasi edi, balki Amin Malikni jazolamaganiga sabab shu ham ham bo'lishi ehtimol.) Bu nomusga chiday olmagan va qattiq ranjigan A'zam Malik Muzaffar Malikni olib, Jaloliddin qo'shinni tark etadi ular bilan birga Sayfuddin Ig'roq ham o'z askarlarini olib Azam Malik va Muzaffar Malik bilan birga ketadi. Buning natijasida xoramzshoh qo'shini yarmiga qisqaradi. Jaloliddin Manguberding yonida faqat Amin Malik va Hasan Qarlug o'z lashkari bilan qolgan, xolos.

Sind daryosi bo'yidagi jang

Chingizxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. Fapdiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberдини daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo'yidagi jang) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan 18-20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab, uning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham Cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizxon Jaloliddin Manguberding bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: «Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!», degan.

Vafoti

Sulton Jaloliddin ko'p yillar davomida Chingizxon qo'shinlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashdi, ammo mo'g'ullarga birlashgan qarshilik frontini tashkil eta olmay, Kurdiston tog'larida halok bo'ldi. Alamut hukmdori orqali mo'g'ullar Jaloliddin yaqinda bo'lgan mag'lubiyatdan zaiflashganini bilib oldilar. O'sha yili Cho'rmag'on boshchiligidagi o'ttiz minglik mo'g'ul qo'shini Jaloliddinni osonlikcha yengib, Shimoliy Eronni egalladi. Xorazmshoh Ganjaga chekindi. Mo'g'ullar ergashib Arranni egallab

olishdi. Jaloliddin Mayafarikin tog'larida panoh topdi va shu yilning avgust oyida u saljuqiylar tomonidan yollangan noma'lum bosqinchi tomonidan o'ldirilgan

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki tarixda qurilgan har turkiy davlatlarni tashqi dushmandan ko'ra ichki dushmanlar yoki boshqa bir turkiy davlat yoq qilganini korishimiz mumkin .saljuqiylar usmonlilar, temuriylar xorazm shoh shahzodalari orasida gi taxt uchun kurash turkiy davlatlarni zaiflashishiga olib kelgan va ular oson yengilishgan.markaziy osiyoda esa uch xonlik davridagi yani Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi doimiy urushlar ularning harbiy salohiyatiga va iqtisodiyotdiyotiga katta ziyon yetkazgan va ularni Rossiya imperiyasi osonlik bilan bosib olgan.

Xorazmshohlar davlatida ham shu vaziyat hattoki m'g'ullar bilan katta urush bo'lib turgan b o'lsada taxt uchun kurash to'xtamagan va bu Chingizhon g'alabasini taminlagan. Temuriylar imperiyasida huddi shu narsa takrorlandi, o'z vaqtida dunyoning 4 dan 3 qismiga hukmronlik qilgan ulkan davlat ichki urushlar natijasida parchalandi, bu esa shayboniyhonning temuriy shaxzodalalrini osonlik bilan yengishiga olib keldi. 1231 yil so'ngi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi vafot etdi. Unung qabri joylashgan joy Turkiyaning diyor Bakir hududlariga togri keladi,

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Shahobiddin Muhammad Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. Kamol Matyoqubov tarjimasi. Toshkent, 1999-yil.
2. Turkmanistonning tarixiy-madaniy merosi: ensiklopedik lug'at. Istanbul: UNDP, 2000. ISBN 975-97256-0-6.
3. Bartold V. V. Mo'g'ul bosqini davrida Turkiston. – M., 1963.
4. Buniyotov Z. M. Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlati. – M., 1986.
5. Domanin A.A. Jasorat qanotlarida - Qo'rqmas, olovqalb, mard Jaloliddin Manguberdi haqida. M.: Haqiqat, 1988.
6. Domanin A.A. Chingiziylar Mo'g'ul imperiyasi. Chingizxon va uning vorislari. M.: Markazlashtiruvchi poligraf, 2005. ISBN 5-9524-1992-5.
7. Turk shoiri va yozuvchisi Nomiq Kamolning „Jaloliddin Xorazmshoh“ asari asosida tayyorlangan besh qismli televizion spektakli(O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron tarjima va ssenariy muallifidir).
8. Бобаева, З. М. (2023). Педагогические особенности логического мышления младших школьников и пути его развития в процессе обучения. Экономика и социум, (1-1 (104)), 183-191.
9. Бобаева, З. М. (2021). Формирование толерантности у школьников в процессе изучения этнокультуры различных народов. In Диалог культур и толерантность общения (pp. 66-71).

10. Бобаева, З. М. (2025). МЕТОД МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ ПРОЦЕССОВ И ЯВЛЕНИЙ НА УРОКАХ ОКРУЖАЮЩЕГО МИРА. Экономика и социум, (1-2 (128)), 613-616.

11. Sheraliyeva, O., & Bobayeva, Z. (2025). O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGI ME'ZONLARINI VA MALAKAVIY AMALIYOTDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI. Инновационные исследования в науке, 4(1), 31-36.

12. Bobayeva, Z., & ali Mamadaliyev, M. (2024). SHAXSDA MALUMOTLARNI YODDA OLIV QOLISH XUSUSIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MECHANIZMLARI. Молодые ученые, 2(28), 124-126.

13. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISH YO 'LLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 94-97.